O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AYOL TIMSOLI VA UNGA OID GENDER STEREOTIPLAR TAHLILI

G’ulomova Hamrobonu Abduxamit qizi
Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti o‘qituvchisi
+99899 198 95 94

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayol obrazi aks etirilgan maqollar keltirilib va ularga izoh berilgan, ayniqsa ayollarga xos stereotipik xususiyatlarning ifodalangan bo’lib, ularning mental, intelektual, aqliy va odob - axloq qobiliyatlariga alohida izoh berib o’tilgan

Kalit so’zlar: frazeologik birlik, maqol, ayol obrazi, mental, intelektual va aqliy qobiliyat, makr, sergaplik, xavflilik

Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va dunyoqarashi mahsuli sifatida shakllanadi. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati va ruhiy olami frazeologik vositalarda o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tili frazeologik boyligida ham xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy qarashlari yaqqol namoyon bo‘lganligini, fikrmizning dalili sifatida, aynan o‘zbek xalq maqollarida ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, ayol obrazining turli qirralarda tasvirlanishi bu borada muhim o‘rin egallaydi. Mazkur ishda o‘zbek xalq maqollari orqali ayolning jamiyatdagi o‘rni, unga nisbatan shakllangan ijtimoiy-estetik munosabatlar yoritiladi.

Jamiyatda ayollarning o‘rni, bir necha asrlar avval, qadrsizlanib ularning huquq va erkinliklari e’tirof etilmagan hamda jamiyat ishlarida faol bo‘lmaganlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tgan asrdan buyon olimlar - ayollar ham qarama-qarshi jins vakillari, ya’ni erkaklar bilan huquqiy jihatdan tengligi hamda ayollar jamiyatda o‘z mavqeiga ega ekanliklari xalq og‘zaki ijodi bo’lmish maqollar va hikmatli so‘zlarda yoritib berilgani o‘z isbotini topmoqda. Ko‘pgina shoirlar she’rlarida, adiblar asarlarida ayollarning tashqi ko‘rinishiga alohida urg‘u berilib, ularning nozik xilqat etib yaratilganligi, yoxud guldek nozik, “bir qultum suv bilan yutib yuboradigan” darajada navnihol etib tasvirlanadi. Lekin, haqiqatda ayol kishi hayotning barcha qiyinchiliklarini o‘zini nozik yelkasiga orta oladigan kuchli, sinovlarga nisbatan chidamli qilib yaratilgan [Madayev, Sobitova, 2010: 15].

Sharq xalqlari hayoti, turmush tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jamiyatda ham, oilada ham, erkak kishining ustunligiga urg‘u beriladi. Barcha masalalarda ayollarning turmush o‘rtog‘iga bo‘ysunishi kerak ekanligi ta’kidlanadi. Bunday qarashlar tilshunoslikda til birliklari orqali ifodalangan bo‘lib, xalq maqollarida va hikmatli so‘zlarida o‘z aksini topgan. Masalan: Erkak bosh bo‘lsa, ayol bo‘yin; erkak shoh bo‘lsa, ayol vazirdir [Mirzayev, 1987: 45] kabi maqollar shular jumlasidandir.

Shuningdek, frazeologik lug‘atlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularning barchasida ayol timsoliga berilgan ta’riflar o‘xshash ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bunday maqollar albatta har bir davlatda yashovchi xalqning mentalitetidan kelib chiqadi. Yuqorida biz keltirgan frazeologik birliklarda ayollarga ijobiy fikrlar bilan e’tirof etilgan bo‘lsa, quyidagilarida uning aksini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, ba’zi bir salbiy jihatlarning yig‘indisidan tashkil topgan maqollar turkumini keltiramiz:

I. Mental, intelektual va aqliy qobiliyat:

(1) Sochi uzun- aqli kalta [Mirzayev, 1987: 60].

(2) Ayoling yaxshi bo‘lsa suf-suf, yomon bo‘lsa bo‘larsan faylasuf [Tadjiyeva, 2022: 119].

II. Sergaplik:

(3) Elakka borgan ayolning ellik og‘iz gapi bor [Tadjiyeva, 2022: 119].

(4) Qizil tilim tiyolmadim, qizimnikiga borolmadim [Mirzayev, 1987: 90 - 110].

III. Makr:

(5) Bir xotinning hiylasi qirq tuyaga yuk bo‘ladi [Tadjiyeva, 2022: 119].

IV. Xavflilik:

(6) Bolaga tegma balosi chiqadi- xotinga tegma – qasosi chiqadi [Rahmatullayev, 1992: 384].

V. Turmush o‘rtog‘ining qarindoshlari bilan munosabat:

(7) Kelsa xotin urug‘i-topiladi yo‘rig‘i, kelsa erning urug‘i-bo‘lar yurak burug‘i.

Yuqorida keltirilgan maqollarda o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrlar ayollarning salbiy jihatlarini sanabgina qolmasdan, balki ularning har bir xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Masalan: 1- maqolda ayollarning intellektual qobiyatiga nisbatan baho berilgan bo’lib, ya’ni ayollarning aqliy salohiyati erkaklarnikidan past degan stereotip fikr ilgari suriladi.

2- maqolda xazilomuz o‘xshatmalar keltirilgan. Unda oilaviy hayotda turmush o‘rtog‘ining (ayolning) o‘rni va ta’siri obrazli tarzda ifodalanadi.“Suf-suf”- bu yerda osoyishtalik, rohat-farog‘at, muammosiz hayotni anglatadi. Ya’ni, agar ayol yaxshi, oqila, sabrli va mehribon bo‘lsa, erkakning hayoti tinch, yengil va baxtli kechadi.“Bo‘larsan faylasuf”- agar ayol bilan munosabatlar qiyin bo‘lsa, erkak ko‘p o‘ylashga, muammolar ustida bosh qotirishga majbur bo‘ladi. Natijada u go‘yoki “faylasuf”ga aylanishi, ya’ni hayotiy muammolarni chuqur tahlil qiladigan holatga tushishi aytib o‘tilgan.

3- maqolda ayollarning gapga chechan ekanliklariga urg‘u berilgan bo‘lib, bu ma’no ellik og‘iz gapi bor frazeologik birligi orqali ifodalangan.

4- maqolda insonning o‘z tiliga ehtiyot bo‘lmasligi, o‘ylamay gapirishi oxir-oqibat pushaymonlikka olib kelishi yoritilgan. “Qizil til” - chiroyli, o‘tkir, gapga usta til degani. Odamning gap- so‘zi, muomalasi nazarda tutilgan, “tiyolmadim” - tussiz va bemani gaplarni ko‘p so’zlashligi aks ettirilgan (ortiqcha yoki achchiq gapirib yubordim degan ma’noni beradi).“Qizimnikiga borolmadim” - o‘sha gaplar sabab yaqin insonlar bilan munosabat buzilib, qizining uyiga borishga yuzi qolmagani mazmuniy jihatdan izohlab berilgan.

5- maqolda ayolning aql-zakovati, tadbirkorligi yoki hiyla-nayrangi haddan tashqari kuchli va ta’sirli qilib ifodalangan. “Qirq tuya” - juda katta yuk va boylik ramzi. Maqolning mazmuni shuki, bir ayolning topqirligi yoki hiylasi jiddiy muammolarni hal qilishga yoki aksincha, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu yerda ayolning ta’sir kuchi obrazli tarzda bo‘rttirib ko‘rsatilgan.

6- maqolda ehtiyotkorlik va birovning yaqin insonlariga zarar yetkazmaslik g‘oyasi ifodalanadi. Bolaga yoki ayolga ozor berish ko‘ngilsiz oqibatlarga, ya’ni “balo” yoki “qasos”ga olib kelishi mumkinligi aytiladi. Mazmunan, bu maqol zaif yoki himoyasiz deb qaraladigan insonlarga nisbatan adolatsizlik qilmaslik, har bir harakatning javobi bo‘lishini eslatadi.

7- maqolda kelin (xotin) va kuyov (er) taraf qarindoshlari bilan munosabatga ishora qilinadi. Mazmuni shuki, xotin tomoni kelganda ko‘pincha vaziyat yengilroq, kelishuv topiladi, er tomoni kelganda esa masala og‘irroq, keskinroq kechishi mumkinligi obrazli ifodalangan. Bu xalq tajribasida qarindoshlar o‘rtasidagi psixologik va ijtimoiy munosabatlar farqini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o’tish kerakki, o‘zbek xalq maqollarida ayol timsoli nafaqat salbiy obrazda gavdalantirilgan, balki ular kuchli sabr va matonatli jins vakillari timsolida tasvirlangan. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi maqollarni keltirishimiz mumkin: “Yuk ko‘targan yuzaga chiqadi” hamda “Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin” [Rahmatullayev, 1992: 45].

Yuqoridagi maqollarning tahlil natijalaridan xulosaga keladigan bo‘lsak, o‘zbek xalq maqollarida ayol obrazining ifodalanishida, asosan, gender stereotiplari orqali tasvirlangan (masalan: sergaplik, makkoralik...). Bundan tashqari, mazkur paremiologik birliklar orqali jamiyatdagi an’anaviy qarashlar, ya’ni erkakning nazorat qiluvchi, ayolning esa mental, intelektual, aqliy va odob - axloq qobiliyatlariga qarab baholanadigan subyekt sifatida tasvirlanishi kuzatiladi. Bu esa maqollarning nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarning aks etish shakli ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. - T.: Sharq, 2010.
2. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Fan, 1987. -120 b.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1992. - 384 b.
4. Tadjiyeva U. Arab va o‘zbek tillarida ayollar mavzusidagi xalq maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari. Uzbek Scholar Journal, 2022. -119 b.